

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 185 (1784), 2026-yil 8-sentabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XITOIY XALQ RESPUBLIKASI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin boshchiligidagi Xitoy Xalq Respublikasi delegatsiyasini qabul qildi.



Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga XXR Raisi Si Szinpinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik hamda amaliy sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston — Xitoy barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yuksak darajaga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi izchil o‘smoqda, Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qo‘shma loyihalar va korxonalar soni ortib bormoqda.

Parlamentlararo va partiyalararo hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor berildi.

Oliy va kasbiy ta‘lim sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, jumladan, mamlakatimizda Xitoyning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari filiallarini ochish muhimligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo va partiyalararo hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib oldilar.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING SERBIYAGA RASMIY TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga rasmiy tashrif bilan Belgrad shahriga keldi.

Serbiya havo hududida O‘zbekiston yetakchisining samolyotiga mezbom mamlakat Harbiy havo kuchlarining qiruvchi uchoqlari hamrohlik qildi.

Nikola Tesla nomidagi xalqaro aeroportda oliy martabali mehmonlarni Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich va uning rafiqasi kutib oldi.

Ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarilib, Faxriy qorovul saf tordii.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga Belgrad shahrida davlatimiz rahbarining Serbiyaga tashrifi munosabati bilan tashkil etilgan rasmiy qabul marosimida ishtirok etdi.

Oliy martabali mehmonlarni Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, Birinchi xonimi Tamara Vuchich, Xalq majlisi Raisi Ana Brnabich, Bosh vazir Juro Matsut va boshqa rasmiy shaxslar qutladilar.

Tadbirida O‘zbekiston Prezidentining Serbiyaga ilk rasmiy tashrifining tarixiy

ahamiyati, ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochayotgani alohida ta‘kidlandi.

O‘zbekiston va Serbiya xalqlari o‘rtasidagi aloqalar an‘anaviy do‘stona ruhda rivojlanayotganiga e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston delegatsiyasining tashrifi sharafiga “Kula Belgrad” osmono‘par binosi O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i ranglarida yoritildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari ertaga boshlanadi. Dasturga muvofiq, O‘zbekiston — Serbiya oliy darajadagi muzokaralari hamda ikki mamlakat rasmiylari va ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida biznes forumi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Ularning yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plamini qabul qilish ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda yettinchi Global kinologiya forumida ishtirok etish doirasida mamlakatimizda bo‘lib turgan Jahon bojxona tashkiloti bosh kotibi Yan Sondersni qabul qildi.

Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, bojxona organlarining salohiyatini mustahkamlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tashkilot ko‘magida O‘zbekiston savdoni yengillashtirish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgani, zamonaviy bojxona nazorati mexanizmlari joriy etilib, Bojxona xizmati faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgani va qabul qilinishi qayd etildi.

O‘zbekistonda bojxona sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida bugungi kunda eksport yuklarining 94 foizi va import yuklarining 87 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilmoqda. Deklaratsiyalarni rasmiylashtirish vaqti 20 daqiqagacha qisqartirildi.

Bojxona organlarining tadbirkorlik subyektlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlaydigan raqamli yechimlar faol joriy etilmoqda, ma‘muriy to‘siqlar qisqartirilib, korrupsiyaviy xavflar kamaytirilmoqda.

Uchrashuvda bojxona tartib-taomillarini yanada raqamlashtirish va uyg‘unlashtirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda kadrlarni o‘qitish va ularning malakasini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Yurtimizni Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishga tayyorlash doirasida ushbu masalalarning dolzarbligi ta‘kidlandi.

Yakunda hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi “yo‘l xaritasi”ni birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘ZA

SUYULTIRILGAN GAZ TA‘MINOTI TIZIMINI ISLOH QILISH TAKLIFLARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholini suyultirilgan gaz bilan ta‘minlash tizimini isloh qilish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Suyultirilgan gaz tabiiy gaz tarmog‘i yetib bormagan hududlarda yashovchi aholini energiya manbai bilan ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, uni o‘z vaqtida, xavfsiz va barqaror yetkazib berish odamlarning kundalik hayoti, ijtimoiy soha obyektlari faoliyati hamda hududlardagi maishiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq.

Taqdimotda suyultirilgan gaz resurslari va taqsimoti balansi, amaldagi yetkazib berish tizimi, narx shakllanishi, subsidiyalar va aholiga ta‘siri tahlil qilindi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, respublikada 3,8 millionga yaqin aholi hamda qariyb 2 mingta ijtimoiy soha obyekti suyultirilgan gaz bilan ta‘minlanadi. Joriy yilda aholi va ijtimoiy soha obyektlari ehtiyoji uchun 604,8 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish ko‘zda tutilgan.

Amaldagi tizimda qator muammolar saqlanib qolayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Ayrim hududlarda suyultirilgan gaz iste‘molchilarga belgilangan muddatda yetib bormayapti. Natijada aholi qo‘shimcha ehtiyojini avtomobillarga gaz quyish shoxobchalaridan bozor narxlarida xarid qilishga majbur bo‘lmoqda.

Tahillarga ko‘ra, suyultirilgan gazni 46 kundan ortiq muddatda olayotgan iste‘molchilarning ulushi 22 foizni tashkil etadi. Bunday holatda ayrim oilalarning bir oylik xarajati amaldagi belgilangan narxdan bir necha barobar yuqori bo‘lmoqda.

Mavjud tartibda suyultirilgan gaz aholi va ijtimoiy soha obyektlariga iymiyozli narxlarida yetkazib berilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish, import, xarid va yetkazib berish xarajatlari o‘rtasidagi tafovut yildan yilga ortib, byudjetdan ajratiladigan subsidiyalarga talab ko‘paymoqda.

Davlatimiz rahbari ayni masalada eng avvalo aholi manfaatli ustuvor bo‘lishi zarurligini ta‘kidladi. Suyultirilgan gaz odamlarga o‘z vaqtida yetib borishi, ta‘minotda uzilishlarga yo‘l qo‘yilmagligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar qo‘llab-quvvatlanishi lozimligi qayd etildi.

Shu maqsadda suyultirilgan gaz ta‘minoti tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Aholiga suyultirilgan gaz yetkazib berish tizimini qayta tashkil etish maqsadida “Hududgazta‘minot” ta‘sischiligidagi “LPG-Trade” mas‘uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etish taklif qilinmoqda. Ushbu tuzilma suyultirilgan gazni birja orqali xarid qilib, belgilangan tartibda odamlarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi.

Shu bois, suyultirilgan gazning chakana narxini belgilashda iqtisodiy asoslangan mexanizmlarning samarali ishlashi ta‘minlanadi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga xarid qilingan suyultirilgan gazning

har bir kilogrammi uchun kompensatsiya to‘lanishi belgilanadi.

Bu orqali narx siyosati bosqichma-bosqich tartibga solinib, ehtiyojmand oilalar uchun manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmi joriy etiladi. Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar umumiy subsidiya o‘rniga aniq iste‘molchiga yo‘naltirilishi tizimning adolatligi va samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy soha obyektlarining ehtiyojlari uchun suyultirilgan gazni birja narxlarida yetkazib berish, aholiga belgilangan narxda sotish natijasida yuzaga keladigan salbiy tafovutni respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplash tartibi ham ko‘zda tutilmoqda.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Andijon viloyatida suyultirilgan gaz yetkazib berish jarayoniga xususiy operatorlarni jalb etish bo‘yicha pilot loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur jarayonda operatorlarda zarur litsenziya va ruxsatnomalar, malakali muhandis-texnik xodimlar bo‘lishi, xizmatlar kamida ikki operator tomonidan amalga oshirilishi, iste‘molchilar uchun mobil ilova va onlayn xizmatlar yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Iste‘molchilar soni va hududiy masofalardan kelib chiqib, shaharsozlik normalari hamda yong‘in xavfsizligi talablariga javob beradigan shoxobchalar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

Ushbu tajribani keyinchalik boshqa hududlarda ham bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyati ko‘rib chiqiladi.

Prezidentimiz islohotlarni puxta hisob-kitob asosida, aholi uchun qulaylik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta‘minlagan holda amalga oshirish zarurligini ta‘kidladi.

Mutasaddilarga suyultirilgan gaz yetkazib berish grafisini qat‘iy yo‘lga qo‘yish, hisob-kitoblarni raqamlashtirish, taqsimotda shaffoflikni ta‘minlash, sun‘iy taqchillik va asossiz narx oshishining oldini olish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatamlar uchun kompensatsiyalarni o‘z vaqtida to‘lash, gaz to‘ldirish inshootlari va tashish jarayonida xavfsizlik talablariga qat‘iy rioya etish, xususiy operatorlar faoliyati ustidan samarali nazorat o‘rnatish vazifalari belgilandi.

Islohotlar natijasida suyultirilgan gaz ta‘minotida shaffof va barqaror tizim shakllanishi, yetkazib berish muddatlari qisqarishi, aholi uchun xizmat sifati oshishi hamda byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ta‘minlanishi ta‘kidlandi.

Shuningdek, taqdimotda Jizzax viloyatida barpo etilayotgan integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining tashqi infratuzilmasi va unga yondosh shaharcha qurish yuzasidan 2-sentabr kuni berilgan qo‘shimcha topshiriqlar ijrosining borishi to‘g‘risida axborot berildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – SERBIYA: STRATEGIK SHERIKLIK O‘RNATILMOQDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Serbiyaga ikki kunlik rasmiy tashrif bilan keldi

O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib, siyosiy muloqot, parlamentlararo aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik va gumanitar sohalarni qamrab olgan ko‘p qirrali sheriklikka aylanib bormoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning muhim xususiyati shundaki, tomonlarning o‘zaro hurmatga asoslangan yondashuvi hamda xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishga intilishi ikki tomonlama muloqot uchun mustahkam siyosiy zamin yaratmoqda.



Davomi 2-betda



GEN-NOKAUT TEXNOLOGIYASI

O‘N UCH YILDAN KEYIN BERILGAN JAVOB

O‘zbekistonda yaratilgan RNK interferensiyasi, ya‘ni hujayra ichida muayyan genlarning faolligi (ekspressiyasi) ni susaytirish yoki butunlay to‘xtatib qo‘yish jarayoniga asoslangan gen-nokaut texnologiyasi dunyo paxtachiligida katta yangilik bo‘ldi.

Bu bir kunlik yoki mavsumiy loyiha emas edi. G‘oya fundamental genetikadan, ya‘ni g‘o‘zda yorug‘likni qabul qiluvchi fotoreseptor genlar oilasining tuzilishi va DNK ketma-ketligini o‘rganishdan boshlandi. Keyin laboratoriyada dastlabki gen-nokaut hujayralari olindi. Bir hujayradan butun o‘simlik qayta tiklandi. Foydali belgilar tasdiqlandi va texnologiya xalqaro patent himoyasiga olindi. Genetik samaralar mahalliy g‘o‘za navlariga o‘tkazildi. Paxtaning “Porloq” navi yaratildi va 2013-yildan fermer dalasiga ushbu navdagi chigiti ekildi.

Endi esa o‘n uch yil o‘tib, o‘sha texnologiyaning eng muhim savoliga javob berish payti keldi: u vaqt sinovidan o‘tdimi, avlodlar almashinuvi, urug‘ ko‘paytirish va turli dala sharoiti uning asosiy belgilarini susaytirib yubormadimi?

Bu savol bejiz emas edi. Molekulyar genetikada ayrim RNK interferensiyasi konstruksiyalarining ta‘siri avlodlar davomida susayishi, xususan, DNK metilalanishi va konstruksiyaning o‘zini o‘zi sukutga tushirishi natijasida samaradorlik pasayishi mumkinligi haqida jiddiy ilmiy savol mavjud edi. “Porloq”ning o‘n uch yillik dala hayoti ana shu savolga yangi javob berdi.



Ushbu javob “Nature Portfolio” tizimidagi “npj Science of Plants” jurnalida nashrga qabul qilingan yangi tadqiqotimizda dunyo ilmiy jamajiyatiga taqdim etildi. Biz 2012-2025-yillardagi tajriba stansiyasi ma‘lumotlari va 2013-2025-yillarda O‘zbekistonning 13 hududida fermer maydonlaridan yig‘ilgan ko‘p yillik ko‘rsatkichlarni tahlil qildik. Natija “Porloq” navlarining asosiy fenotipik xususiyatlari, ayniqsa, tola uzunligi va umumiy sifat profili, raqobatbardosh hosil salohiyati bilan birga o‘n yildan ortiq keng dala yetishtirish sharoitida saqlanib qolganini ko‘rsatdi. Demak, laboratoriyada boshlangan texnologiya fermer dalasiga yetganidan keyin ham o‘z mazmunini yo‘qotmadi.

Bugun biz uning taqdirini bir mavsumlik tajriba emas, o‘n uch yillik dala tarixi orqali baholayapmiz.

Texasdan boshlangan tarix

Mazkur natijaga qanday yetib kelinganini tushunish uchun tarixga nazar solish kerak. 1997-yili universitetni tugatganidan keyin “Umid” jamg‘armasi orqali AQShning Texas A&M universitetida tahsil olish va ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldim. O‘sha yerda rahmatli ustozim professor Kamol El-Zik menga paxta tolasini uzaytirish muammosi ustida ishlashni topshirdi. Professor Alan Pepper esa g‘o‘zaning fitoxrom genlari oilasini o‘rganishni taklif qildi. G‘oya o‘sha davr uchun juda muhim edi. Yorug‘likni qabul qilib, o‘simlikning o‘sishi, gullashi va rivojlanishini boshqaradigan genlar orqali tola uzunligi va boshqa muhim belgilarni o‘zgartirish mumkinmi? Menga bu g‘oya juda qiziq edi. Chunki soyada yoki qorog‘ri sharoitda o‘sgan o‘simlik poyasi tez cho‘zilib ketishini ko‘p kuzatgan edim. Shu bois, yorug‘lik signali bilan o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik meni qiziqtirardi. Shu tariqa g‘o‘za fitoxrom genlari oilasining genetik belgilari, ularning tuzilishi va funksional imkoniyatlarini o‘rganishga kirishdim. 2001-yilda bu ishlarni doktorlik dissertatsiyamda yoqladim. Keyinchalik natijalarimiz “BMC Plant Biology” jurnalida ham e‘lon qilindi.



Davomi 3-betda



4-6 September 2026, Samarkand, Uzbekistan
Twelfth IPU Global Conference of Young Parliamentarians
 Reclaiming human rights, justice and dignity for all in turbulent times



Prezident tashabbuslari – amalda



USHBU MAQOLANI
 QORAQALPOQ TILIDA
 HAM O'QISH UCHUN
 QR-KODNI SKANER
 QILING!



YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uznews



yuz.uz_news

tayyorlash, qonun ijodkorligiga qiziqishini oshirish va parlament faoliyati bilan bevosita bog'lashda muhim mexanizmga aylandi. Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda ushbu yo'nalishda qilinayotgan ishlar esa milliy tajribani xalqaro tajriba bilan boyitish imkonini bermoqda.

Bu yerda bir muhim haqiqatni anglash zarur: yoshlar parlamentlari katta parlamentlarning muqobili emas. Ular siyosiy tajriba maktabi, muloqot maydoni va yangi avlod parlamentariylarini shakllantirish institutidir.

Ularda ishtirok etayotgan yoshlar qonunchilik jarayonini o'rganar ekan, jamiyatlardagi turli fikrlar bilan ishlash, dalillarga asoslangan yondashuvni shakllantirish, munozara madaniyati, mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni egallaydi. Bu esa nafaqat ularning bugungi faoliyati, balki mamlakatning ertangi siyosiy institutsional salohiyati uchun ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi yosh parlament a'zosi — ertangi siyosiy lider. Shuning uchun yoshlarning siyosiy faolligiga sarflanayotgan har qanday sa'y-harakatni kelajakka kiritilayotgan investitsiya deb baholash mumkin.

Samarqandda muhokama qilingan masalalar doirasi bu fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Inson huquqlari va yoshlarning siyosiy ishtiroki, ijtimoiy adolat, raqamli xavfsizlik, ta'lim va munosib mehnat, yosh ayollarning siyosiy faolligi, parlamentlarning global muammolari hal etishdagi roli kabi masalalarning barchasi bevosita yosh avlodning bugungi va ertangi hayoti bilan bog'liq.

Ayniqsa, yosh ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Jamiyatning yarmini tashkil etadigan ayollarning salohiyatidan to'liq foydalanmay, barqaror va inkluziv taraqqiyotga erishish qiyin. Shuning uchun ularning parlamentlar, davlat boshqaruvi va jamoatchilik institutlaridagi ishtirokini rag'batlantirish demokratik taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir.

Bugun dunyo yoshlari oldida turgan yana bir katta masala raqamli texnologiyalardir. Sun'iy intellekt, raqamli platformalar va yangi kommunikatsiya vositalari, bir tomondan ulkan imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, yolg'on axborot tarqalishi va raqamli tengsizlik kabi yangi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda.

Bu masalalarni hal qilishda yoshlarning o'ziga xos tajribasi va qarashlari nihoyatda muhim. Chunki raqamli muhitda eng faol harakat qilayotgan avlod aynan yoshlardir. Demak, raqamli kelajak qoidalarini ishlab chiqishda ularning fikrini inobatga olish zarur.

Shu ma'noda, Samarqanddagi konferensiya nafaqat bugungi muammolarni muhokama qilish, balki ertangi kunning siyosiy va huquqiy kun tartibini shakllantirishga qaratilgan muhim muloqot maydonidir.

Samarqandda yangrayotgan fikrlar, takliflar va tashabbuslar faqat konferensiya zallarida qolib ketmasligi lozim. Ularni milliy parlamentlar faoliyati, qonunchilik tashabbuslari, yoshlar siyosatini takomillashtirishga qaratilgan yangi mexanizmlar va xalqaro hamkorlikning amaliy loyihalarida davom ettirish muhim.

Konferensiya yakunida qabul qilingan hujjat ham ana shu maqsadga xizmat qilishi, yosh parlament a'zolarining umumiy qarash va tashabbuslarini o'zida mujassam etishi bilan ahamiyatli bo'ladi.

Biz uchun eng muhim natija yoshlarning ovozi qaror qabul qilish jarayoniga yanada keng kirib borishi, tashabbuslari aniq siyosiy va qonunchilik yechimlarida o'z aksini topishidir.

O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda ushbu global anjumanni qabul qilishi yurtimizning parlament diplomatiyasidagi ochiq va konstruktiv pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi.

Biz xalqaro muloqotdan chetda turishni emas, balki uning faol ishtirokchisi bo'lishni, umumiy muammolarga birgalikda yechim izlashni va o'z tajribamizni boshqalar bilan baham ko'rishni maqsad qilgudamiz.

Samarqanddagi konferensiya ana shu yo'ldagi muhim qadamdir. Bu tinchlik, adolat, inson huquqlari va qadr-qimmatiga asoslangan kelajakni birgalikda barpo etishga bo'lgan umumiy ishonchdir.

bugun ishlab chiqarish, savdo maydoniga aylandi. Bu yerda tayyorlanayotgan duradgorlik, mebel mahsulotlari dizayni, yuqori sifati bilan hayratngizni oshiradi. Mahalliy duradgorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar ichki bozordan tashqari Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'izistonga eksport qilinmoqda.

"Yangiqishloq" mahalla fuqarolar yig'ini temirchiligi bilan tanilgan. Bu yerdagi 400 ga yaqin xonadonda ketmon, bolta, tesha kabi ro'zg'or buyumlari tayyorlanadi. Ayni kunda qishloqda temirchilikka ixtisoslashgan hunarmandlar sanoat zonasi qurilishi boshlandi. Bir paytlar chekka qishloqlarda mana shunday sanoat tarmoqlari ishga tushadi desa, hech kim ishonmagan. Bularning barchasi kundalik hayotimiz, ko'z o'ngimizda quloq yozmoqda.

Shahar, qishloqlarimizdagi bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini-ku, ta'riflashga til ojiz. So'nggi ikki-uch yilda birgina Farg'ona viloyatida misli ko'rilmagan bunyodkorlik qilindi. Yangi shaharlar, dam olish maskanlari minglab oilalarga quvonch, shodlik, vatan ichida "kichik vatan"li bo'lish imkoniyatini berdi. Bularning barchasi yurtimizdagi tinchlik va tinchliksevar ichki va tashqi siyosatning amaldagi ko'rinishi. Bundan odamlar bahra olmoqda, manfaat topmoqda. Mana shunday ulug'vor ishlar hamqadam va madadkor bo'lish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Buvayda tumani

YOSHLAR OVOZI – PARLAMENT DIPLOMATIYASINING MUSTAHKAM TAYANCHI

Orzigul QOZIXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar,
madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi



bugungi dunyoda yoshlarning ovozi, qarashlari va siyosiy ishtirokiga ehtiyoj tobora ortib borayotganining muhim ifodasi bo'ldi.

Samarqand yana bir bor jahon parlament diplomatiyasining muhim muloqot maydoniga aylandi. Qadimiy va hamisha yangilanish ruhi bilan yashaydigan bu shaharda Parlamentlararo Ittifoqning XII Yosh parlament a'zolari butunjahon konferensiyasi bo'lib o'tdi. Dunyoning 58 ta mamlakatidan yosh parlament a'zolari, 11 ta xalqaro tashkilot vakillari, jami 250 ga yaqin ishtirokchini bir joyga jamlangan ushbu nufuzli anjuman nafaqat navbatdagi xalqaro tadbir, balki

Bu yondashuv yoshlar siyosati yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Endi masala faqat yoshlar uchun sharoit yaratish emas, balki mamlakat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shishi uchun mexanizmlar yaratishdan iborat. Samarqanddagi konferensiya ana shu milliy tajribaning xalqaro maydondagi muhim taqdimoti hamdir.

turli qarash va yondashuvlar o'rtasida muloqotni ta'minlash, umumiy manfaatlariga asoslangan yechimlarni izlashda parlamentlar alohida o'rin tutadi.

Parlament diplomatiyasi rasmiy davlatlararo munosabatlarni to'ldirib, xalqlar va jamiyatlar o'rtasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi. Unda muloqotning ochiqligi, turli nuqtaiy nazarlarni



So'nggi yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatining ochiqlik, o'zaro ishonch, konstruktiv muloqot va amaliy hamkorlikka asoslangan yangi bosqichi parlamentlararo munosabatlarda ham yaqqol ifodasini topmoqda.

eshitish va umumiy manfaatlar atrofida kelishuv izlash imkoniyati keng.

Shu jihatdan O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq doirasidagi faol ishtiroki mamlakatimiz parlament diplomatiyasining

sharoit yaratishdir. Bu tamoyil O'zbekistonda yuritilayotgan yoshlar siyosatida tobora keng va aniq mazmun kasb etmoqda.

Bugun yurtimizda yoshlarning davlat boshqaruvi, parlament, mahalliy vakillik organlari, jamoatchilik institutlari va boshqa sohalaridagi ishtirokini ta'minlash uchun zarur institutsional mexanizmlar shakllantirilgan. Xususan, 2020-yilda Oliy Majlisning ikki palatasi huzurida Yoshlar parlamentlari tashkil etilgani muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Bu tuzilmalarning ahamiyatini faqat yoshlarni parlament faoliyati bilan tanishtirish yoki ular uchun alohida muloqot maydoni yaratish bilan cheklash mumkin emas. Yoshlar parlamentlari, eng avvalo, yosh avlod bilan qonun ijodkorligi va parlament faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiruvchi muhim institutsional ko'priikka aylanmoqda. Yoshlar qonunlarni o'rganish bilan birga o'z tashabbuslarini ilgari surish, ijtimoiy muammolarga yechim taklif qilish, parlament muhokamalarida qatnashish va jamoatchilik manfaatlarini ifoda etish tajribasiga ega bo'lmoqda.

Bu tajriba, o'z navbatida, yoshlarning siyosiy madaniyatini oshiradi. Eng muhimi, ularda demokratik institutlarga nisbatan ishonch, mas'uliyat va daxldorlik hissinu kuchaytiradi. Zero, parlament faqat qonunlar qabul qilinadigan joy emas. U turli qarashlar eshitiladigan, manfaatlar uyg'unlashtiriladigan, jamiyatning bugungi va ertangi ehtiyojlari muhokama qilinadigan siyosiy makondir. Yoshlarni ushbu jarayonga qanchalik erta va samarali jalb qilsak, demokratik institutlar ham shunchalik hayotiy va barqaror bo'ladi.

O'zbekistondagi konstitutsiyaviy va institutsional islohotlarda yoshlar manfaatlariga alohida e'tibor qaratilayotgani shu maqsad bilan uyg'un. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa strategik hujjatlarda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, munosib ta'lim, mehnat va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.



Oliy Majlisning xorijiy davlatlar parlamentlari, xalqaro parlament tashkilotlari va mintaqaviy tuzilmalar bilan aloqalari izchil kengayib bormoqda.

Parlament diplomatiyasining ahamiyati ayni paytda yanada oshib borayotgan tasodif emas. Chunki bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash,

xalqaro nufuzini mustahkamlash bilan birga milliy tajriba va tashabbuslarni global parlament kun tartibiga olib chiqish uchun muhim imkoniyat yaratmoqda.

Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson xonim konferensiyada ta'kidlaganidek, yoshlarning ovozi xalqaro miyosda muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlarida tobora

Parlament diplomatiyasining kelajagi esa uning yangi avlod parlamentariylarini qanchalik keng jalb eta olishiga bog'liq.

O'zbekistonda shakllanayotgan tajriba shu ikki yo'nalishni birlashtirish imkonini borligini ko'rsatmoqda.

Oliy Majlis palatalari huzuridagi Yoshlar parlamentlari yoshlarni siyosiy jarayonlarga



Dildagi gaplar

Mustaqilligimizning 35 yilligi har qachongidan o'zgacha tantana va ko'tarinkilik bilan nishonlandi. Bayram shodiyonalarida chiroq kechib, ko'ngil tubidan bodrab chiqqan kechinmalar, hayotiy qarashlarimni qog'ozga tushirishga harakat qildim. Tantanalarni o'tgan bo'lsa-da, uning shukuh, jozibasid dillardan dillarga ko'chib yuribdi. Bu bejiz emas, albatta.



Sobirjon OTABOYEV,
faxriy jurnalist

yaqin, og'irini yengil qilish maqsadida qo'shimcha avtotransport, poyezd, samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilib, chipta narxlar arzonlashtirib berilmoqda. Mana shuning o'ziyoq tariximizni tanish, yurt bo'ylab sayohat qilishimizga katta zamin yaratdi. Odamlar oila bilan ko'proq vaqt o'tkazishiga sabab bo'lib, ijtimoiy muhitga ijobiy ta'sir qilmoqda. Uzoq yillar turli idoralarda mas'ul vazifalarda ishladim. Ammo imkon topib, Buxoro va Samarqandga bora olganim yo'q edi. Shukrlar bo'lsin, bu qadim va tabarruk maskanlarni bir necha bor ziyorat qilish nasib etdi. Bularning barchasi inson farovonligi, baxt-saodatni yo'lida

berilgan imkoniyat, imtiyozlarning amaliy ko'rinishi.

Men tug'ilib, voyaga yetgan Buvayda tumani ahli bir asrdan ko'p vaqt mobaynida faqat paxta yetishtirish bilan shug'ullanib kelgan. Tumanda paxtani birlamchi qayta ishlash tarmog'idan boshqa biror korxona bo'lmagan. Ishsizlik yuqori, manfaatdorlik haminqadar edi. Bu uzoq o'tmish bilan bog'liq voqea va hodisalar emas, yaqin yigirma yil avvalidagi gaplar. Endi bu boradagi ish tizimi o'zgardi. Buvayda tumani sanoatlashib, rivojlanib borayotgan hududga aylandi. Aholi ehtiyoji va ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhim bo'lgan yo'l, elektr energiyasi, tabiiy gaz tarmog'i singari infratuzilmalar qurildi, qurilyapti.

Tumanimizda yangi sanoat zonalar qurilishi uchun 58,6 gektar yer ajratildi. Bu juda katta imkoniyat. Ayni kunda mahallalar darayridan kelib chiqib, 8 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilmoqda. Xorijlik hamkorlar va salohiyatli investorlar bilan qiymati 400 million dollarga yaqin 70 dan ortiq loyiha pakei shakllantirildi. Yangi



sanoat zonalarida istiqbolli va yuqori daromadli ish o'rni yaratadigan loyihalar uchun tumandagi salohiyatli tadbirkor va mutasaddilar xorijda bo'lib, yangi texnika va texnologiyalar olib kelyapti. Yoshlar kafolati ish o'rnlari bilan ta'minlanayapti. Ilgari chetdan katta xarajat, ovoragarchilik bilan olib kelingan sanoat mahsulotlarini farg'onalik qorako'zlar ishlab chiqaryapti.

"Cho'mbog'ish" mahalla fuqarolar yig'ini hududida meblsbozlikka ixtisoslashgan majmua barpo etilgach, ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'plab muammolarga yechim topildi. Endi har bir usta uchun alohida ish joyi, kerakli infratuzilma tarmoqlari qurilib, zarur sharoitlar yaratildi. Buvayda — Yangiqo'rg'on katta avtomobil yo'li bo'yida qad rostlagan majmua



Raqamli dunyoda insonning san’atdan umidi tubdan o’zgardi. Atrofimizni o’rab turgan manzaralar — tayyor tasvirlar oqimi bugunning odamlarini hayratlantirmay qo’ydi. Zamonaviy kishi endi san’at asari qarshisida go’zallikdan zavqlanuvchi passiv kuzatuvchi bo’lib qolishni xohlamayapti. Uning o’zi ham fikrlash jarayoniga kirishish, chigal, murakkab, abstrakt shakllar, mayhum ramzlar, ishoralar hamda kutilmagan konseptual yechimlar orasidan o’z haqiqatini qidirishni istayapti.

Bir qarashda mutlaqo tushunarsizdek tuyulgan installatsiyalar, video-art va noan’anaviy kompozitsiyalar tomoshabiniga o’z tasavvurini ishga solish, asar muallifi bilan muloqotga kirishish hamda ulkan mohiyatni birgalikda anglash imkonini beradi. Ayni damda ixlosmandlar uchun san’at estetik zavq qolipidan tartibsiz dunyoda o’zligini anglash, davrning ruhiy iztiroblari hamda savollariga javob izlash uchun mo’ljallangan intellektual va emotsional poligonga aylandi.

Shu falsafiy talablarning mantiqiy hosilasi sifatida Toshkentda Zamonaviy san’at markazi (CCA Tashkent) ochildi. Joriy yil 4-sentabr kuni Prezidentimiz Zamonaviy san’at markaziga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbariga markazning kelgusidagi ko’rgazma, ta’lim va tadqiqot dasturlari haqida ma’lumot berildi. Yangi maskan professional muhitni rivojlantirish, o’zbekistonlik ijodkorlarni xalqaro maydonda keng tanitish va yurtimizning boshqa davlatlar

IQTIDORLI YIGIT-QIZLARNI XALQARO MIQYOSGA CHIQISHI UCHUN MUHIM MAYDON



Toshkentda Zamonaviy san’at markazi (CCA Tashkent) ochildi. Joriy yil 4-sentabr kuni Prezidentimiz Zamonaviy san’at markaziga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbariga markazning kelgusidagi ko’rgazma, ta’lim va tadqiqot dasturlari haqida ma’lumot berildi.

bilan madaniy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlandi. Prezidentimiz markazni ijodkor yoshlar, professional hamjamiyat va keng jamoatchilik uchun ochiq, jonli ijodiy makonga aylantirish zarurligini aytdi.

Mamlakatimizda doimiy faoliyat yurituvchi, sof, zamonaviy san’at yo’nalishlariga ixtisoslashgan ilk institutsional maskan bo’lmish ushbu muassasa an’anaviy tasviriy san’at chegaralarini oshib o’tuvchi novatorlik g’oyalari hamda dadil izlanishlar uchun muhim platforma

bo’ldi. U mahalliy ijodkorlarning dunyo san’at kontekstiga tajriba qilishdan dadil kirib borishini ta’minlabgina qolmay, poytaxtimizning madaniy xaritasida intellektual muloqot va yangicha badiiy tasavvurlar kesishgan markaz sifatida namoyon bo’lmoqda.

Toshkent markazida 1912-yili barpo etilgan sobiq dizel elektr stansiyasi binosi tubdan qayta tiklanib, Zamonaviy san’at markaziga (CCA Tashkent) aylantirildi. O’zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg’armasi tashabbusi bilan amalga oshirilgan ushbu loyiha mamlakatimiz madaniy infratuzilmasini boyitish, zamonaviy ijodkorlarni qo’llab-quvvatlash va xalqaro muloqotni rivojlantirishda muhim qadam bo’ldi. Industrial merosni zamonaviy madaniyat bilan uyg’unlashtirish vazifasi Fransiyaning dunyoga mashhur “Studio KO” me’morlik byurosiga topshirildi.

Mazkur byuroga asos solgan Karl Fume va Olive Marti har bir ishga qolip va qoidalardan xoli, mutlaqo yangicha hamda erkin ruh bilan yondashadi. Me’morlar loyiha ustida ishlashda obyekt joylashgan tabiiy muhit, atrofdagi landschaft va mavjud infratuzilmadan ilhomlanadi. Aynan shu kontekst ularning g’oyalari va kelgusi sa’y-harakatlari uchun asosiy start nuqtasiga aylanadi.

Mutaxassislar Zamonaviy san’at markazining ichkarisini ham asl arxitekturasini va boy tarixiy qiyofasini to’liq saqlab qolgan holda bugunning talablariga moslashtirdi. Natijada Toshkentning muhim tarixiy obyektini ikkinchi va ancha shiddatli hayotini boshladi.

— CCA Tashkent ko’p tarmoqli kompleks formatga ega. Bir joyning o’zida keng ko’lamli

ko’rgazma maydonlari, boy kitob fondiga ega kutubxona, dizaynerlik mahsulotlari taqdim etiladigan konsept-stor, shuningdek, shina restoran va maxsus ta’lim zonalarini jamlangan, — deydi Toshkent Zamonaviy san’at markazi badiiy rahbari doktor Sara Raza. — Binodagi jamoat maydonlarida uchrashuvlar, badiiy tadqiqotlar o’tkazish va ijodiy muloqot qilish uchun qulay muhit mavjud. Bu yerda yosh ijodkorlar o’z loyihasini taqdim etadi. Tadqiqotchilar manbalar va arxiv materiallari bilan ishlaydi. Keng jamoatchilik esa ta’lim dasturlari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va ijodiy hamjamiyat bilan bevosita muloqot orqali zamonaviy san’at bilan yaqindan tanishadi. Markaz milliy madaniyatimiz va jahon vizual tili o’rtasidagi uzilishlarni bartaraf etuvchi muhim intellektual ko’priikka aylanishiga ishonaman.

Markazning birinchi ko’rgazmasi Hikmah (“Hikmat”) deb nomlangan. Ekspozitsiya mahalliy an’analar, moddiy madaniyat, ma’naviy meros va zamonaviy badiiy amaliyotlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni taqdim qilgan zamonaviy rassomlarning asarlarini birlashtirdi. Ekspozitsiyada I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog’iston Respublikasi davlat san’at muzeyi kolleksiyasidan Vladimir Pan, Doribay Saipov va Baxtiyor Saipovning asarlari namoyish etildi.

Muassasaning asosiy vazifalaridan biri o’zbek rassomlarini xalqaro maydonda tanitish, yirik ko’rgazmalarda ishtirok etish va qo’shma loyihalarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Markaz xorijdagi yetakchi madaniy muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ushbu xalqaro aloqalar madaniy diplomatiyani mustahkamlash, poytaxtning zamonaviy qiyofasini shakllantirish hamda yangi O’zbekistonni boy merosga ega, shu bilan birga, zamonaviy g’oyalari, ijodiy izlanishlar va xalqaro muloqotga ochiq mamlakat sifatida yanada keng namoyon etishga xizmat qiladi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

O’ttiz besh yil. Bu taqvimdagi shunchaki raqam emas. Bu – bir inson umrining salmoqli qismi, bir avlodning shakllanish davri, bir davlat tarixidagi o’zgarishlar, sinovlar va ulkan yangilanishlarni qamrab olgan butun bir bosqich.

O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Yangi Toshkentda o’tkazilgan tantanali marosim an shu tarixiy bosqichga chuqur nazar tashlash, bosib o’tilgan yo’lni sarhisob qilish va kelgusidagi taraqqiyotning ustuvor yo’nalishlarini belgilash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etdi.

Prezidentimizning O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda “Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!” degan fikrida yangi O’zbekiston taraqqiyotining siyosiy va ma’naviy mazmuni mujassam.

Bu — shunchaki bayramona shior emas. Undan muhim siyosiy falsafani, ya’ni taraqqiyotning haqiqiy subyekti xalqning o’zi ekanini anglash mumkin.

Istiqlolning dastlabki yillarida dunyoga kelgan avlod bugun mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va intellektual hayotida faol ishtirok etayotgan katta kuchga aylandi. Ular uchun mustaqillik — tarix kitoblaridagi sana emas. Bu avlod erkin fikrlash, bilim olish, kasb tanlash, tadbirkorlik qilish, o’z iqtidori va salohiyatini namoyon etib dunyoga chiqish imkoniyatlarini mustaqil davlat bilan uyg’un holda qabul qildi. Shu ma’noda, o’tgan 35-yil avlodlar almashtiruvchi bilan birga milliy o’zlik va fuqarolik mas’uliyatining yangi mazmun kasb etgan davri bo’ldi.

Mustaqillikni anglash uning qadrini bilishdan boshlanadi. Qadrlash esa uni asrash va mustahkamlash mas’uliyatini yuklaydi. Zero, siyosiy mustaqillikning o’zi yetarli emas. Mustaqillikning haqiqiy qudrati iqtisodiy barqarorlik, kuchli davlatchilik institutlari, qonun ustuvorligi, inson qadri, ma’naviy yuksalish va raqobatbardosh jamiyat bilan boyib borgandagina namoyon bo’ladi.

Mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyot yo’li bir tekis kechgani yo’q. Davlat va jamiyat oldida murakkab vazifalar, ichki va

tashqi sinovlar, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bo’ldi. Biroq bu jarayonning eng muhim natijasi shundaki, O’zbekiston o’zining milliy taraqqiyot modelini shakllantirib, bosqichma-bosqich yangi sifat darajasiga ko’tarildi.

Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, ta’lim, shaharsozlik, tadbirkorlik, investitsiya va inson huquqlari kabi ko’plab sohalarida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirildi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz nutqining o’ziga xos jihati — kechagi kun bilan bugun, bugungi natijalar bilan esa erangi maqsadlar o’zaro bog’langanidir. Ya’ni tarix hisobot uchun emas, kelajak strategiyasini belgilash uchun zarur degan yondashuv ustuvor.

Bugun “Yangi O’zbekiston” tushunchasi faqat siyosiy leksikonga kirgan ibora emas. U davlat va jamiyat hayotidagi keng ko’lamli o’zgarishlarni ifodalovchi siyosiy-ijtimoiy konsepsiyaga aylanib bormoqda. Uning markazida, eng avvalo, inson, yurtdoshlarimiz manfaatlarini, jamiyat ehtiyojlari va mamlakatning raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadi turibdi. Mazkur jarayonda eng muhim masala islohotlarning o’zi emas, balki



ulaming inson hayotida qanday aks etayotganidir. Zamonaviy siyosiy boshqaruv ham aynan shu mezonni talab qiladi: qarorning qiymati uning



Bahora AHMEDOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari maslahatchisi

qanchalik balandparvoz ekanini bilan emas, balki fuqaroning hayotiga qanday ta’sir ko’rsatishi bilan o’lchanadi.

Tantanali marosimning Yangi Toshkentda o’tkazilgani ham ramziy ma’noga ega. Yangi

infratuzilma va yangi ijtimoiy muhit barpo etishga intilishni ifodalaydi.

Bugun dunyoda shaharlar mamlakatlarning iqtisodiy va intellektual raqobat markaziga aylanmoqda. Shu bois, zamonaviy megapolislar qurish masalasi faqat binolar va yo’llar barpo etishdan iborat degani emas. Bu yangi ish o’rinlari, ta’lim va innovatsiya muhiti, qulay yashash sharoiti, transport tizimi va inson kapitali uchun yangi ekotizim yaratish demakdir. Yangi Toshkent timsolida ana shu yangi taraqqiyot falsafasini ko’rish mumkin.

Mustaqillikning 35 yilligi haqida so’z borganda, eng katta e’tibor yoshlarga qaratilishi tabiiy. Chunki mamlakatning ertangi siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy qiyofasi bugungi yosh avlodning bilimi, dunyoqarashi va faolligiga bog’liq. Bugun zamonaviy o’g’il-qizlar uchun vatanparvarlik tushunchasi ham yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Vatanga xizmat qilish faqat an’anaviy tushunchalar bilan cheklanmaydi. Ilm-fan bilan shug’ullanish, yangi texnologiya yaratish, halol tadbirkorlik qilish, sifati ta’lim olish, xorijiy tillarni o’rganish, raqobatbardosh mutaxassis bo’lish, jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish ham yurt taraqqiyotiga xizmatdir. Shuning uchun yoshlarni “kelajak egalari” deb atashning o’zi kifoya emas. Ularga bugunning o’zida qaror qabul qilish, tashabbus ko’rsatish va o’z salohiyatini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish zarur. Prezidentimiz nutqining yoshlarga qaratilgan qismi ana shu nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi.

Tantanali ma’ruzada bayramona tabrik bilan birga mamlakatning bosib o’tgan yo’li, bugungi natijalari va kelajakdagi vazifalari mantiqiy zanjirda bog’langani e’tiborga molik. Bu esa nutqni bayram tabrigi darajasidan yuqori ko’taradi. Chunki davlatimiz rahbarining har qanday yirik siyosiy nutqi, avvalo, jamiyatga muayyan signal beradi. Ushbu ma’ruzaning asosiy signali esa bunday: erishilgan natijalar — yakuniy manzil emas, ular yangi, yanada katta maqsadlarga erishish uchun poydevordir.



Unda keltirilgan raqamlar ham shunchaki statistika emas. Ular mamlakat taraqqiyotining muayyan ko’rsatkichlari, erishilgan natijalar va oldinda turgan vazifalarni anglash vositasi. Tarixiy taraqqiyotni raqamlar bilan o’lchash mumkin. Ammo uning haqiqiy mazmunini inson hayotidagi o’zgarishlar belgilaydi. Shuning uchun har bir iqtisodiy ko’rsatkich ortida inson mehnati, har bir yangi korxona ortida — yangi ish o’rni, har bir ta’lim loyihasi ortida — yoshlarning taqdiri, har bir infratuzilma loyihasi ortida millionlab fuqarolarning hayot sifati bor.

Bugun O’zbekiston oldida turgan vazifalar kechagidan mutlaqo farq qiladi. Endi asosiy maqsad faqat taraqqiyotga erishish emas, balki uning barqaror, sifatlari va raqobatbardosh modelini shakllantirishdir.

Dunyoda geosiyosiy raqobat kuchayib, iqtisodiy va texnologik o’zgarishlar tezlashayotgan bir paytda mamlakatning kelajagi inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv va milliy birlik kabi omillarga tobora ko’proq bog’lanmoqda. Demak, yangi tarix yaratish uchun faqat katta maqsadlarni belgilashning o’zi kifoya qilmaydi. Bu maqsadlarga munosib yangi tafakkur, yangi bilim va yangi mas’uliyat ham zarur.

O’zbekistonning 35 yillik mustaqillik tarixi bizga bir haqiqatni yaqqol ko’rsatdi: davlatning buyukligi uning hududi yoki tabiiy boyliklari

bilangina emas, balki xalqning salohiyati, birligi, bilimi va bunyodkorlik qudrati bilan belgilanadi.

Shu ma’noda, “Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!” degan da’vat bugungi avlod zimmasiga yuklangan tarixiy vazifaning siyosiy ifodasidir.

Prezidentimiz nutqida ilgari surilgan g’oyalarni aholiga keng va mazmunli yetkazish, ayniqsa, yosh avlodning chuqur anglashiga ko’maklashish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti hamda bir guruh olimlar hamkorligida “Birlashib, buyuk tarix yaratamiz!” nomli kitob tayyorlandi. Unda mamlakatimiz yetakchisining nutqi siyosiy-strategik hujjat sifatida tahlil qilinadi. Har bir g’oya, raqam va vazifalar shunchaki keltirilmay, ularning tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy ahamiyati ochib beriladi. Shu tariqa o’quvchi nafaqat nutq mazmunini o’qiydi, balki uning zamiridagi maqsad va mas’uliyatni ham teran anglaydi. Infografikalar esa murakkab ma’lumotlarni sodda va vizual tarzda qabul qilish imkonini beradi.

Ushbu qo’lanmaning metodik ahamiyati shu jihatdan yuqori bo’lib, undan mustaqillik darslari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ochiq muloqotlar, davra suhbatlari va yoshlar bilan ishlash jarayonida samarali foydalanish mumkin.

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqatir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.	O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan. Nashr indeksı — 236. Buyurtma — G-946. Hajmi — 3 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog’oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug’murodov Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko’chasi, 85-uy
MUASSIS: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi				
Qabulxona: (71) 233-56-33 E’lonlar bo’lini: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz Be6-cair: www.yuz.uz: (71) 233-47-05	Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60	“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.	